
OLTIARIQ SANOAT TEXNIKUMI BITIRUVCHILARIGA DIPLOM TOPSHIRISH MAROSIMI BO'LIB O'TDI

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda tuman hokimligi vakillari, tumandagi ish beruvchi tashkilotlar mutasaddilari, faxriy ustozlar, texnikum o'qituvchilari va o'quvchilari hamda ularning ota-onalari ishtirok etdi.



Tadbirda texnikumning moddiy texnik bazasi mustahkamlanib, o'qitish sifati yildan-yilga oshayotgani, Farg'ona Davlat universiteti bilan texnikum o'rtasida izchil hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, oliygohning yuqori malakali professor-o'qituvchilari tomonidan texnikum o'quvchilariga mahorat darslari o'tilayotgani alohida e'tirof etildi.

Shuningdek, texnikumni bitirgan o'quvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha universitetning 2-kursidan o'qishni davom ettirishlari mumkin ekanligini alohida ta'kidlandi.

Tadbir yakunida o'qish davrida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, texnikum nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shganlarga tashakkurnomalar taqdim etildi. 132 nafar bitiruvchiga Oltiariq Sanoat texnikumini bitirganlik to'g'risidagi diplom tantanali ravishda topshirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-22 15:07:01